



YOG'UCHGA ISHLOV BERISHDA TEXNIKA XAVFSIZLIGI QOIDALARI MAVZUSINI O'QITISH METODIKASI

D.B.Ismoyilov

*Navoiy davlat universiteti, Texnologik
ta'lim kafedrası o'qituvchisi*

***Annotatsiya.** Yosh avlodni zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida tarbiyalash va ularda mustahkam bilimlar tizimini shakllantirish muhim pedagogik jarayondir. Ushbu maqola zamonaviy ta'limning asosiy vazifalariga e'tibor qaratib, o'quvchilarning chuqur bilim olishlariga imkon yaratadigan o'qitish metodlari va yondashuvlari haqida so'z yuritadi. Shu bilan birga, maktab ustaxonalarida mehnat faoliyati jarayonida xavfsizlik qoidalariga rioya qilishning ahamiyati va bu jarayonda talab qilinadigan tartib-qoidalar tahlil qilinadi. Maqola yosh avlodni fanning barcha yo'nalishlarida muvaffaqiyatli rivojlanishiga zamin yaratish uchun ta'lim jarayonida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan muhim jihatlarni yoritishga qaratilgan.*

***Kalit so'zlar:** ta'lim texnologiyalari, pedagogik jarayon, xavfsizlik qoidalar, bilimlar tizimi, o'quvchi yoshlar, zamonaviy ta'lim, maktab ustaxonasi, mehnat faoliyati, metodik yondashuvlar, o'qitish tartiblari.*

Yosh avlodning ilmiy va hayotiy dunyoqarashini kengaytirish o'qitish ishiga qo'shib olib boriladigan zarur pedagogik jarayondir. Zamonaviy o'qitish texnologiyalarining joriy etilishi va turli metodik yondashuvlar esa o'z navbatida talabalarda ko'plab fundamental tushunchalarning nisbatan yengil va mustahkam shakllanishiga sharoit yaratiladi. Bugungi kunda fan va texnika jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan ko'plab ilmiy bilimlar, tushuncha, tasavvurlar va axborotlar hajmi shiddat bilan ortib bormoqda. Ta'limning asosiy vazifalaridan biri insoniyat hozirgacha erishgan ilmiy bilimlar va fan-texnikaning yutuqlari bilan yosh avlodni qurollantirishdir. Yosh avlodda shunday bilimlar tizimini yaratish lozimki, bu bilimlar ularning keyingi rivoji uchun asos bo'lib xizmat qilsin. Hozirgi kunda bilimlar hajmi, axborotlar hajmi tobora oshib borayotgan bir davrda ta'lim tizimi talabalarga berishili kerak bo'lgan bilimlar, malaka va ko'nikmalar hajmini belgilash hamda bu jarayonda qaysi omillarni hisobga olish kerak degan masalalarni yechimini topish ustida izlanishlar olib borilmoqda. Maktab ustaxonalarida belgilangan ichki tartib-qoidalariga rioya qilish zarur.

Mashg'ulot boshlanishidan oldin ish kiyimini kiyish kerak. Ustaxonaga qo'ng'iroq chalinmasdan oldin kelish, har bir o'quvchining qo'lida o'quv qurollaridan kundalik daftar, darslik, qalam, chizg'ich, o'chirg'ich bo'lishi shart. Mashg'ulot boshlanishida har kim o'zining ish o'rnini ko'zdan kechirishi va uni ishlash uchun taxt qilishi lozim. Shuningdek, hamma o'z ish o'rnida ishlashi va o'qituvchining ruxsatisiz hech kim u yerdan ketmasligi kerak. Asboblar, moslamalar



va uskunalarni ehtiyotlab saqlash, xomashyolardan tejamkorlik bilan foydalanish zarur. O'qituvchining ko'rsatmasi bilan ishni to'xtatish va uning tushuntirishlarini diqqat-e'tibor bilan tinglash kerak. Tanaffus vaqtida deraza darchalarini ochib qo'yib, so'ng ustaxonadan chiqish lozim. Tanaffusdan keyin har kim o'zining ish o'rniga keladi va ishlashni davom ettiradi. Ish tugagach asboblari, moslamalar, materiallar artib tozalanadi va joy-joyiga qo'yiladi, ish o'rnini yig'ishtiriladi, tayyorlangan buyum topshiriladi, kiyimlar tozalanadi va qo'llar yuviladi. O'qituvchi ruxsat berganidan keyingina ustaxonadan chiqish mumkin.

Ustaxonada barcha mehnat topshiriqlarini bajarishda ish xavfsizligi qoidalarini yaxshi bilib olish va ularga to'liq rioya etish lozim. Bu qoidalar quyidagilardan iborat:

1.	Ish kiyimi to'g'ri kiyilganini tekshirish (xalatning qo'l va old tugmalari qadalgan bo'lishi kerak), bo'yinbog' uchlarini qistirish.
2.	Ish o'rnini, asboblarni ko'zdan kechirish va ishlatishga tayyorligini tekshirish.
3.	O'qituvchining ruxsatisiz ish o'rnidan uzoqlashmaslik.
4.	Asboblari va xomashyolarni ehtiyotkorlik bilan ishlatish.
5.	O'qituvchining ruxsatisiz dastgohlarda ishlamaslik, tuzilishi o'rganilgan uskunalardangina foydalanish.
6.	Faqat ishga yaroqli asboblardan foydalanish, ularni o'z o'rnida ishlatish, asboblarni ish o'rniga ulardan foydalanish uchun qulay holatda joylashtirish
7.	Ish yakunlangandan keyin ish qurollarini ko'zdan kechirish, nosoz asboblari to'g'risida o'qituvchini ogohlantirish
8.	Ish o'rnini payraxa va qipiqlardan maxsus cho'tka bilan tozalash.
9.	Mehnatda xavfsizlik qoidalari buzilgan yoki jarohatlanish yuz bergan hollarda darrov o'qituvchiga xabar qilish.

Ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida, xususan uning eng muhim shakllantiruvchisi bo'lgan umumiy o'rta ta'lim tizimidagi muhim vazifalardan biri o'qituvchi yoshlarni fanning barcha yo'nalishlarida chuqur va mustahkam bilim olish, ularni kelajakda ta'limning yuqori bosqichlarida o'qishini muvaffaqiyatli davom ettirib, munosib kadrlar bo'lib yetishishlariga zamin tayyorlashdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. K.S. Nasriddinova. The Importance of An Integrative Approach in The Education of Future Physics Teachers. - Uzbek Scholar Journal, 2024.
2. L. Turdieva, K.S. Nasriddinova. Methodology for Teaching the Topic "Device Used in Crafts" - Uzbek Scholar Journal, 2024.



3. Alisherovna, M. K. (2020). Analysis and evaluation of sources of investment in automotive transport enterprises. *South Asian Journal Of Marketing & Management Research*, 10(4), 74-78.
4. M.A. Joraeva, M.D. Sh, S.N. Khamroeva. *Process Method for Wool and Silk Fibers, Their Production and Properties*. - Uzbek Scholar Journal, 2024.
5. Alisherovna, M. K. (2021). Car transport an approach to the research of the essence of investment activities of enterprises. *Asian Journal Of Multidimensional Research*, 10(5), 415-418.
6. Sh. Sharipov va boshq. *Mehnat*. – T.: «Sharq» ta’limi: Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 5-sinf uchun darslik, 2015.
7. Alisherovna, M. K. (2021). Tasks of implementation of investment policy. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(9), 848-852.
8. Худойназаров, Ф. Х. (2024). Кичик Бизнес Субъектлари Фаолиятига Инновацион Технологияларни Жорий Этиш. *International scientific journal of Biruni*, 3(2), 178-186.
9. Mukhitdinova, K. A. (2020). The Importance of Sources of Financing of Transportation System. In *Наука 2020. Теория И Практика* (pp. 23-25).

